

**SHERMUHAMMAD MUNIS IJODIDA QIT'ALAR VA ULARNING
G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI****Abdujabborova Nigina Ilyos qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tadqiqotchisi.

niginqabdujabborova@gmail.com +99891-318-25-27<https://doi.org/10.5281/zenodo.18393382>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shermuhammad Munis Xorazmiy ijodidagi qit'alar va ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda shoir qit'alarida ilgari surilgan axloqiy, ijtimoiy va falsafiy masalalar, xususan, insoniy fazilatlar, do'stlik va dushmanlik, so'z mas'uliyati, adolat va g'aflat mavzulari yoritiladi. Tadqiqot davomida Munis qit'alarining o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni, Alisher Navoiy an'analari bilan bog'liqligi asoslab beriladi.

Maqola Munis Xorazmiy ijodining didaktik va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Munis Xorazmiy, qit'a janri, mumtoz adabiyot, axloqiy g'oyalar, ijtimoiy tanqid, so'z mas'uliyati, adolat, g'aflat, Navoiy an'analari.

Abstract. This article analyzes the quatrains (qit'as) in the works of Shermuhammad Munis Khorezmi and their ideological and artistic characteristics. It examines the moral, social, and philosophical issues raised in the poet's quatrains, including human virtues, friendship and enmity, responsibility of speech, justice, and negligence. The study substantiates the place of Munis's quatrains in Uzbek classical literature and their connection with the traditions of Alisher Navoi. The article aims to reveal the didactic and educational significance of Shermuhammad Munis Khorezmi's literary heritage.

Key words: Munis Khorezmi, qit'a genre, classical literature, moral ideas, social criticism, responsibility of speech, justice, negligence, Navoi traditions.

O'zbek adabiyoti tarixida turli davrlarda xilma xil janr va shakllarda ijod qilindi va milliy adabiyotimizning boy va rang-barang merosi yaratildi. Shu jarayonda ixcham va qisqa shakldagi janrlar muhim ahamiyat kasb etti. Xususan, qit'a janri ham bu borada alohida ahamiyatga ega bo'lgan janrlardan biridir. Qit'a o'zining qisqa va ritmikligi bilan, insoniy tuyg'ular, axloqiy-falsafiy mulohazalarni aniq ifodalash imkonini beradi. Bu janr orqali shoirlar hayotiy voqelik, milliy qadriyatlar va ma'naviy-axloqiy g'oyalarni qisqa va ta'sirli so'zlar bilan o'quvchiga yetkazgan.

Qit'a janri o'zbek she'riyatida nafaqat badiiy ijodning bir shakli sifatida, balki ma'naviy va ma'rifiy ahamiyatga ega vosita sifatida rivojlandi. U turli davrlarda shoirlarning ijodiy mahoratini namoyon etish, zamon muammolarini she'riy tarzda yoritish, shuningdek, milliy dunyoqarashni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilgan. "Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Fors-tojik adabiyotida qit'aning dastlabki namunalari Rudakiy ijodida ko'rinadi. Uning janr taraqqiyoti va takomilida fors shoiri Avhadiddin Anvari va Ibn Yamin Faryumodiyning xizmati katta.

O'zbek adabiyotida qit'aning ilk namunalari "Devonu lugotit turk"da, Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Gadoiy, Lutfiy va boshqa ijodida uchrasa-da, uning taraqqiyoti Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Qit'adan hech kim Navoiychalik samarali foydalana olgan emas. U eng ko'p qit'a yozgan Ibn Yaminning ilg'or an'alarini o'z davri sharoitiga bog'lab rivojlantirgan, qit'ani o'zbek adabiyotida mustaqil janr darajasiga ko'targan.

XVI—XIX-asrlarda Bobur, Poshshoxoja, Munis Xorazmiy, Shavqiy Kattaqo'rg'oni, Shukuriy Farg'oni, Ogahiy, Miriy, Avaz O'tar, Almaiy va boshqa shoirlar Navoiy an'alarini davom ettirib, o'zbek qit'anavisligiga hissa qo'shdilar"¹.

Ana shunday ijodiy muhitda Shermuhammad Munis Xorazmiy qit'alari alohida o'rin tutadi. Munis qit'alarida Xorazmning ijtimoiy hayoti, tabiati va insoniy qadriyatlar she'riy tarzda aks etgan bo'lib, mazmunan chuqur baytlar orqali o'quvchini fikrlashga undaydi. Munis ijodini tadqiq etish orqali nafaqat Xorazmiy qit'alarining badiiy xususiyatlarini, balki ularning o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyatini ham yoritish mumkin.

Munis Xorazmiy — shoir, tarixnavis, tarjimon, xattot va ma'rifatparvar. Dastlabki ma'lumotni tug'ilgan qishlog'ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o'qigan. 1800-yilda otasi vafot etgach, Avaz Muhammad Inoq Munisni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlagan. Munis zamonasining mashhur olim, shoir va san'atkorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini she'riyatga, ilm-fan va ma'rifatga bag'ishlagan. Munis 1804-yilda birinchi she'rlar devoni — "Devoni Munis"ni yaratgan. 1806-yilda Eltuzarxon Munisga Xiva xonligi haqida kitob yozishni topshirgan. Munis o'z asarini Sherg'ozixon davrigacha yozib yetkazganda, Eltuzarxon fojiali halok bo'ladi. Munis kitobini davom ettiradi va 1819-yilda Mirxondning "Ravzat us-safo" ("Soflik bog'i") tarixiy asarini turkiy tilga tarjima qilishni boshlaydi. Munis bu asarning 1-jildini tarjima qilishga ulguradi. U bu ikki asarni ham tugata olmay vafot etadi.

Munis o'z she'rlarini to'plab birinchi martaba 1804-yilda kichik devon tuzadi. Undan keyin yozilgan sh'rlarini ham qo'shib, 1815-yilda 8446 baytdan iborat to'liq devon tuzib, unga "Munisul-ushshoq" ("Oshiqlar do'sti") deb nom qo'ydi. "Munisul-ushshoq"ga shoirning g'azallari, muxammaslari, ruboiylari, mustozodlari, tuyuqlari, qit'a va fardlari kiritilgan. Bundan tashqari devon oxiriga shoirning 1804-yilda nazm bilan yozib tugatilgan kalligrafiyaga oid "Savodi ta'lim" nomli asari ham kiritilgan².

Shoirning bizga ma'lum devoniga kiritilgan qit'alar sanoqli bo'lsada uning mavzu ko'lami va insonga bera oladigan ma'naviy va ma'rifiy jihatlari talaygina. Masalan, Munis qalamiga mansub quyida qit'aga nazar tashlaylik:

*Ulug'in tutmasa aziz kichik,
Xor bo'lsa ulug' kichikka netong.
Igna yetkurdi to'ng'a chun ozor,
Andin o'ldi boshu oyog'i yalong³.*

Qit'a yosh avlodga maslahat sifatida yozilgan, ya'ni aziz kichiklar ulug'larning so'zini olmay, uning maslahatlariga quloq solmasa, u buyuk kishi bo'lib ham xor bo'lsa, ajablanarli ish emas. Zero, igna ham to'nga ozor bergandan keyin yalang oyoqqa aylanadi. Qit'ada keksalarga hurmat va ularning maslahatiga amal qilish g'oyasi ilgari suriladi.

Munisning qanchalik mahoratli ekanligini shu birgina qit'a ham ochib bermoqda. Juda go'zal so'z o'yini bilan bitilgan bu qit'a qaysi davrda bo'lishidan qat'i nazar o'z salohiyatini yo'qotmaydi. Shoir ijodining boshqa namunalari ham shu g'oyaviy yo'nalish bilan xarakterlanadi.

*Garchi zohirda barcha do'stdurur,
Bo'lma eminki, dushmanim yo'q durur.*

¹ Orzibekov R., Lirikada kichik janrlar Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1976.

² Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. – Тошкент. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 5 б.

³ Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. Тошкент. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 320 б.

*Yaxshi qilsang nazar jahon eliga,
Joningga xasm do'sting-o'qdurur⁴.*

“Xasm” dushman demakdir. Garchi sirtida hamma senga do'st kabi ko'rinsa, sen amin bo'lmay dushmanim yo'q dema. Atrofingga yaxshilab qarasang joningga dushman aslida do'stingdir ya'ni zohirdagi do'stlaring sening joningga qadalgan o'qdir. Bu baytlar “Bir onang do'st, bir tanang do'st” maqoliga mutanosib. Qit'a orqali Munis o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda har kimni ham do'st sanab yaqin olmaslikni, ayrim do'stlardan ko'ra dushman yaxshiroq ekanligini aytmoqda.

*Tutma badgo' birla suhbatkim, yomon so'z zahridin,
Neshi zanbo'ri kibi har dam berur ozorlar.
Kim yaqinroq borsa itga urmogidin injitur,
Balki tishlab jismin afgoru to'nin murdorlar⁵.*

“Badgo'” – yomon so'zlovchi, “neshi zanbur” - ari nayzasi, “urmak” - hurmoq, “Injitmoq” - ramjitmoq, “afgor” - yaralangan, “murdor” - nopok. Yomon gaplar aytuvchi bilan suhbatlashma, ular xuddiki, ari nayzasi kabi yomon so'zlarining zahri bilan har dam ozor beradi. Kimdir it huryotgan vaqtda uni janjitib borsa, balki it tishlab tanangni afgor, to'ningni nopok qilar. Ya'ni yomon so'z so'zlaguvchilarni itga o'xshatib, ularga yaqin borgan odamni xuddi it kabi hurib, yomon ahvolga solib qo'yadi, deyilmoqda. Bunday baytlar Navoiy fikrlari bilan hamnasaf. “Mahbub ul-qulub” asaridan olingan quyidagi parcha so'zimiz isboti bo'la oladi: “Nodonning vahshiylarcha baqirmog'i — eshakning bemahal hangramog'i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi...Odam — tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir”⁶.

Munis Xorazmiyning bu qit'adan tashqari “So'z” va “Shuaro” radifli she'rlari, “Sen dur sochibon so'zungdin...” deb nomlanuvchi ruboiylarida ham shu mavzuga oid va uning nodir asarlaridandir. Bu asarlar orqali XVIII-XIX asrlarda she'r va shoirlarning naqadar tuban ahvolga tushib qolganini haqqoniy tasvirini berdi⁷.

Munis Xorazmiy ijodida ijtimoiy tanqid, adolat masalasi, hokim va raiyat munosabati muhim o'rin tutadi. U ko'pincha davlat egalarining g'aflatini, mansab va boylikning insonni “mast” qilishi, faqir va mazlumlarning holidan bexabar qolinishini bevosita yoki bilvosita tasvirlaydi. Quyida qit'a keltirilgan “masti jomi davlat” iborasi aynan Munis ijodiga xos ramziy ifoda bilan uyg'un. Davlat va boylik mast qilgan kishi qon ichayotgan faqirlar holidan xabarsiz bo'ladi. Axir, uxlab yotgan odam bedorlarning boshiga qanday kulfat tushayotganini qayerdan bilsin.

*Angakim masti jomi davlatdur,
Qon icharda faqirlar na xabar.
Ore uyqug'a borg'on anglamag'ay,
Uyqusizlarg'a har na bo'lsa agar⁸.*

⁴ Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. Тошкент. Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. — 320 б.

⁵ Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. — Тошкент. Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. — 320 б.

⁶ Alisher Navoiy. Nasriy asarlar. - Toshkent. Turon-iqbol nashriyoti, 2025. — 127-128 b.

⁷ Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. — Тошкент. Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. — 8 б.

⁸ Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. — Тошкент. Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. — 320 б.

Mazkur qit'ada ilgari surilgan axloqiy g'oyalar Munis Xorazmiy ijodiga xos bo'lgan umumiy tendensiya bilan hamohangdir. Shoirning boshqa qit'alarida ham insoniy fazilatlarni ulug'lash, g'iybat va chaqimchilik kabi illatlarni qoralash, shuningdek, shaxsning o'z nuqsonlarini tan olishga da'vat etish yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol Munisning qit'a janridan ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida foydalanganini ko'rsatadi.

*El aybi nihonig'a nedur pardalar o'lmoq,
Kim aylamak o'z aybing erur xalqqa uryon.
To aylamasang o'zgalar asrorini izxor,
G'ammoz demaklik sening otingni ne imkon⁹.*

“Uryon”- ochiq, “asror”-sirlar, “g'ammoz”-chaqimchi. Odam boshqalarning aybini yopib yurishi kerak, o'z aybini esa oshkor qilmasligi lozim.

Kim birovning sirini fosh qilmasa, u hech qachon chaqimchi bo'lmaydi. Xuddi shunday fukrlar Navoiyning ijodida ham uchraydi: “U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o'z bo'yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo'lsa ham ko'ngilsizdir, yolg'on bo'lsa yanada nafratlidir. So'z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi — do'zax o'tining tutanturug'i bil”¹⁰.

Munis Xorazmiy she'riyatida chinakam insoniy sevgi, ishq-muhabbat g'oyalari bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, haqgo'ylik, do'stlik, sadoqat, ma'rifatparvarlik va insof-diyonat kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ham yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etiladi. Uning she'riyatida jamiyatda mavjud bo'lgan haqsizlik, zulmkorlik, jaholat va boshqa illatlar har tomonlama fosh etiladi. Ayniqsa, saroydagi ayrim nopok hukmdorlarning xalqqa yetkazayotgan jabr-zulmlari o'tkir misralarda ochib tashlanadi.

Xon va amaldorlar insof va diyonatga, adolatga chaqiriladi. Yuqoridagi kabi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar shoirning “Sharo”, “So'z”, “Dud”, “Umid”, “O'raza” radifli she'rlari va g'azallarida aniq ifoda etilgan. -Davlat rahbarlari insofli, diyonatli, adolatli va ma'rifatli bo'lsagina mamlakatda tinchlik, osoyishtalik, adolat va farovonlik qaror topadi, - deb ta'lim beradi shoir. Munis she'riyati haqiqatan ham umidvorlik ruhi bilan sug'orilgandir¹¹.

Xulosa qilib aytganda, Shermuhammad Munis Xorazmiy ijodidagi qit'alar mazmunan ixcham bo'lishiga qaramay, chuqur g'oyaviy va axloqiy mohiyatga ega. Shoir qit'a janridan jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, insoniy munosabatlardagi muammolar, so'z mas'uliyati va axloqiy poklik masalalarini yoritishda samarali foydalangan.

Munis qit'alarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ular yosh avlodni ma'naviy barkamollikka chorlaydi. Shu jihatdan Munis Xorazmiy qit'alari o'zbek mumtoz adabiyotining muhim va barqaror badiiy hodisasi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nasriy asarlar. – Toshkent. Turon-iqbol nashriyoti, 2025. – B. 623.
2. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent. Fan, 2007.
3. Matyakubova M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. – Toshkent. 2008.

⁹ Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 320 6.

¹⁰ Alisher Navoiy. Nasriy asarlar. - Toshkent. Turon-iqbol nashriyoti, 2025. – 130 b.

¹¹ Matyakubova M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. – Toshkent. 2008. – 38 b.

4. Nustatullo Jumayev, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). – Toshkent. Innovatsiya-ziyo, 2020.
5. Orzibekov R., Lirikada kichik janrlar. – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1976. –B. 162.
6. Qayumov A., Xorazm adabiy muhiti. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1985. – B. 368.
7. Rustamov A., O'zbek mumtoz she'riyati janrlari. – Toshkent. Fan nashriyoti, 1999. – B. 243.
8. Shermuhammad Munis. O'zbek mumtoz she'riyati antologiyasi. 31-tom. –Toshkent. 2022.
9. Порсо Шамсиев. Навоий луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б. 782.
10. Шермуҳаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. –Б. 366.
11. <https://mum-toz.narod.ru>
12. <https://tafakkur.net>
13. <https://uzbaza.uz>